




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2022- YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1279,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 96,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat – 4,7 % ga va suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 5,9 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati





Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini tashkil etdi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oltingugutr, t.	103,0	183,0	80,0
Shag'al, t.	-	-	-



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, ming so'm	9363707,0	10400500,0	1036793,0

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar

FHI,% da



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1197,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,3 % ini tashkil etdi.


2021-yil
yanvar

93,5
%

2022-yil
yanvar


95,3
%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,0 % (1,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 36,5 % (49,8 %) va quyi texnologiyali – 62,4 % (48,7 %)ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 27,6 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 70,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 40,2 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 123,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,1 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 115,3 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 4,1 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 94,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 85,3 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 2,0 % ga o'sgan), 50,1 ming litr uzum vinosi (2,9 m), 427,8 ming litr aroq mahsulotlari (2,9 m) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Mazut, ming t.	11,5	7,4	-4,1
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	1015,7	351,0	-664,7
Paxta tolasi, t.	12589,0	14037,0	1448,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	7551,0	6812,0	-739,0
Paxta chigiti, t.	21676,0	19926,0	-1750,0
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	4437,1	3726,9	-710,2

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 81,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 10,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 4,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 52,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4% ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 219,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 70,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 105,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 40,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 23,5 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 514,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 115,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 12,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 79,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 126,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 27,6 % ni, fizik hajm indeksi 70,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 353,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 101,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,7 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	0,4	0,6	0,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	152,3	120,5	-31,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar	2022-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1484,9	1245,0	-239,9
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	40,7	41,4	0,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 16,2 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,8 % ga oshganligi kuzatildi. .

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8677,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 120,2% ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar

33,8%

2022-yil
yanvar

29,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar

66,2%

2022-yil
yanvar




71,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,0 % (2021- yil yanvar oyida 2,8 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib 33,3 % ni va Buxoro shahri 17,4 % ni, G'ijduvon tumani 15,5 % ni hamda Jondor tumani 4,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (115,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich G'ijduvon (178,1 %), Kogon (139,6 %) tumanlarda, Buxoro shahri (128,2 %), Buxoro (118,0 %) hamda Peshku (110,4 %) tumanlarda qayd etildi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 33,3 % shuningdek, Buxoro shahri 17,4 %, G'ijduvon 15,5 % ni, Jondor 4,7 % tumanlari tashkil etdi.





Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 46,4 % shuningdek, G'ijduvon tumani 16,5 %, Buxoro shahri 14,2 % ni, Kogon tumani 6,3 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 25,1 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 13,1 % ni, Jondor tumani esa 10,6 % ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, 28,8 % ni, shuningdek, G'ijduvon tumani 15,7 % ni, Buxoro shahriga esa 15,1 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati

2020- yil

2744,8 mlrd. so'm

2021- yil

1274,1 mlrd. so'm

2022- yil

1279,0 mlrd. so'm



2020- yil


106,0 %

2021- yil

86,8 %


2022- yil

96,5 %



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (19 604,1 ming so'm), Kogon shahrida (1 082,4 ming so'm) hamda Kogon tumani (830,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (651,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Buxoro viloyati

2020- yil

705,0 ming so'm

2021- yil

658,3 ming so'm

2022- yil

651,9 ming so'm



01

2020- yil

106,6 %

02

2021- yil

85,6 %

04



2022- yil

95,2 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 329,9 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 11 489,3 ming so'mni, Kogon tumanida – 566,4 ming so'mni, Buxoro shahrida – 397,5 ming so'mni tashkil etdi.

Buxoro viloyati



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4873 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1278 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,2 % i) Buxoro shahriga, 616 tasi (12,6 % i) G'ijduvon tumaniga, 378 tasi (7,8 % i) Kogon tumaniga, 377 tasi (7,7 % i) Buxoro tumaniga, 349 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 341 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 301 tasi (6,2 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

